



A.QODIRIY NASRIY ASARLARIDA LIRIK KECHINMA TABIATI

Andijon davlat pedagogika insituti o'zbek tili va adabiyoti metodikasi

yo'nalishi magistri 101-guruh talabasi

Xurillayeva SHohsanam Ravshanbek qizi

Annotasiya: Maqolada lirik kechinma tushunchasi, Qodiriy hayoti va ijodi, Qodiriy nasriy asarlari talqini va undagi lirik kechinmaning o'rni va xususiyati ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. O'zbek adabiyotida boshqa yozuvchi va shoirlar ijodida ularning lirik kechinma tabiati va Qodiriy asarlaridagi lirik kechinma tabiati bilan bog'liqligi ko'rsatildi. Shuningdek, lirik kechinma mohiyati va uning o'zbek adabiyotidagi o'rni haqida ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Lirika, Lirik kechinma, Qodiriy hayoti va ijodi, Qodiriy nasriy asarlari, Boshqa yozuvchi va shoirlarning nasriy asarlarida lirik kechinma tabiati.

Annotation: The article scientifically analyzes the concept of lyrical emotion, the life and work of Qodiriy, the interpretation of Qodiriy's prose works, and the role and characteristics of lyrical emotion within them. It demonstrates the relationship between the nature of lyrical emotion in the works of other Uzbek writers and poets and its nature in Qodiriy's works in Uzbek literature. Additionally, the essence of lyrical emotion and its significance in Uzbek literature are also discussed. This translation provides an overview of the article's focus on lyrical emotion and its role in Qodiriy's works, as well as in the broader context of Uzbek literature.

Keywords: Lyrical Emotion, Life and Work of Qodiriy, Prose Works of Qodiriy, Nature of Lyrical Emotion in Prose Works of Other Writers and Poets.

Аннотация: В статье научно анализируются концепция лирического переживания, жизнь и творчество Кадыри, а также интерпретация его



прозаических произведений с акцентом на роль и особенности лирического переживания в них. Также подчеркивается связь между природой лирического переживания в произведениях других узбекских писателей и поэтов и его природой в произведениях Кадыри. Кроме того, обсуждается суть лирического переживания и его значение в узбекской литературе.

Ключевые слова: Лирическое переживание, Жизнь и творчество Кадыри, Прозаические произведения Кадыри, Природа лирического переживания в прозаических произведениях других писателей и поэтов.

KIRISH.

Lirika (yun., *cholgʻu asbobi*) adabiy tur sifatida qadimdan shakllangan boʻlib, oʻzining bir qator xususiyatlariga egadir. Lirika-fikrdan tugʻilgan sezgi mevasi-bir onli kayfiyatning hosilasi boʻlgani sabab, „shoir ruhi boshqa kayfiyatga boʻysinmasdan ilgari qogʻozga koʻchishi“ shart. Shuning uchunham u qisqa, larzada boʻladi. V. G. Belinskiy yozganidek, „lirik asarning mazmuni obyektiv voqyeaning taraqqiyoti emas, uning mazmuni – subyekning oʻzi va u orqali oʻtgan hamma narsadir... kishini mashgʻul etgan, toʻlqinlantirgan, shodlatgan, qaygʻuga solgan, zavqlantirgan, tinchitgan, hayajonlantirgan nima boʻlsa, qisqasi subyekning maʼnaviy hayotini tashkil qilgan hamma narsa, subyekt ichiga nima kirsam, unda nima paydo boʻlsa, shularning barchasini lirika oʻzining qonuniy boyligi kabi qabul qiladi“ (V. G. Belinskiy, 184 - bet). Jamol Kamol ana shu mulohazalarga tayangan holda, quyidagi toʻgʻri xulosaga keladi: „Lirik kechinmada fikr va hissiyot qorishiq yashaydi. Bugina emas, ular bir – birining magʻiz – magʻiziga shunday singib ketadiki, ajratib koʻrishning iloji boʻlmay qoladi. Bu ajralmas birlik – butun lirik kechinmaning mohiyatini tashkil etadi“ (Jamol Kamol, 13 - bet). Haqiqiy ijodkor sheʼriyatga kirib kelar ekan turli xil shakl va mazmunda oʻz uslubini namoyon qiladi. Sheʼriyatning buyuk qudrati ham, oʻquvchini oʻziga rom etishi bilan izohlanadi. Chunki inson ruhi uchun dard ham, shodlik ham doimo oʻzviy birlikda yashab



keladi. Shoir she'riyati bilan tanishar ekanmiz, uning ma'naviy olamini tassavvur etamiz, undagi tuyg'ular, kechinmalar inson qalbini larzaga solishiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. Inson ruhiyatidagi o'zgarishlarni, his-tuyg'ularning keng silsilasini turfa xil ziddiyatli buyoqlarda aks ettirish, odamzod shuurini band etgan muammolarni butun murakkabligi bilan suvratlantirish, shaxsning yuksak milliy – umuminsoniy mohiyatini ochib berishga intilish an'anasi yetakchilik qiladi. Ijtomoiy ongda yuzaga kelgan o'zgarishlar ifodasi sifatida ko'ngil dunyosining teran qatlamlariga kirib borish, uni idrok qilishning yangicha shakllarini kashf etish, uslubiy-shakliy izlanishlar samarasi o'laroq, yuksak didli shoir she'riyati haqida adabiiy tandiqchilikda turfa xil mulohazalar, qarashlar, tahlillar ham vujudga keldi. Shuning uchun shoir she'riyati haqidagi adabiy tanqidiy mulohazalarga munosabat bildirib o'tishni lozim topdik. Shavkat Rahmon she'riyatida narsa va hodisalarga katta ma'no yuklaydi, hodisalardan falsafiy umumlashmalar yasaydi. Natijada ular jonsizlikdan jonlilikga aylanadi, insoniylashadi. Tut daraxtini hamma biladi, uning boahiga tushadigan savdodan (yiliga kasallanishi) ham barcha xabardor.

Lirik kechinma (kechinma - obraz) ning xislatini o'zida jam qilgan (Navoiy bobomiz aytgan “xos hol” - nodir kechinma, holat va “xos ma'no” - sara, o'tkir fikrning chatishuvidan yuzaga kelgan)

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Abdulla Qodiriy – o'zbek adabiyotining zabardast namoyandalaridan biri bo'lib, uning ijodiy merosi nafaqat badiiy qiymatga ega, balki xalqning o'tmishini anglash va o'zlikni qadrlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyotida nasriy asarlar yaratgan mashhur yozuvchilardan biridir. Uning asarlarida lirik kechinmalar muhim rol o'ynaydi. Qodiriy, asosan, o'z asarlarida o'z davrining ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy holatlarini tasvirlash orqali inson ruhiyatini ochib beradi. Uning



asarlari ko'pincha o'zbek xalqining an'analari, urf-odatlari va kundalik hayotini aks ettiradi.

"O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" kabi asarlarida lirik kechinmalar qahramonlarning ichki dunyosini, ularning sevgi, sadoqat va azob-uqubatlarini chuqur tasvirlaydi. Lirik kechinmalar orqali Qodiriy o'quvchini qahramonlarning his-tuyg'ulari bilan bog'lab, ularga chuqur ta'sir qiladi. Bu, o'z navbatida, asarlarni yanada samimiy va jonli qiladi, o'quvchini o'z qahramonlarining hayotiy tajribalariga yaqinlashtiradi.

Hulosa

Hulosa qilib aytishim mumkinki, Qodiriy o'z asarlarida o'zbek xalqining tarixini, madaniyati va urf-odatlarini chuqur tasvirlash bilan birga, tarixiy so'zlar va iboralardan mahorat bilan foydalangan. Bu uslub o'quvchini o'sha davr muhitiga olib kirib, milliy ruhni his qilishga yordam beradi. Qodiriy ijodida ishlatilgan tarixiy leksika, o'tmishda yashagan avlodlarimizning hayot tarzi, qadriyatlari va madaniyatidan dalolat beradi. Qodiriy asarlarida lirik qahramon ko'proq milliylik ruhida, o'zbekona tarbiyani o'zida aks etkan. U asarlarida ko'proq o'zbekona lirik kechinmani aks ettirgan deya olamiz. Buni "O'tkan kunlar" da "Otabek" lirik qahramon desak. Otabekning tarbiyasi, fikrlashi butunlay o'zbekona ruhda bo'lganligini anglaymiz. Unda do'stlik, sevgi, ota-onaga va Vataniga bo'lgan muhabbati boshidan oyoq milliylikka hosligini ko'ramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.Sulton. *Adabiyot nazariyasi*, "O'qituvchi", Toshkent, 1980.
2. L.I. Timofeyev. *Osnovy teorii literatury*, "Prosveuyeniye", Moskva, 1971.
3. R.Uellek, O.Uorrek. *Teoriya literatury*, "Progress", Moskva, 1978.



4. www.ziynet.uz

5. Миллий истиқлол ғояси: Асосий тушунча ва тамойиллар: –Т.: Ўзбекистон, 2001. -76 б.

6. Каримов И.А. Илму фан мамлакатимиз тараққиётига хизмат қилсин. Асарлар тўплами. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1996. – 151б.

7. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1999. – 32 б.

8. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари.-Тошкент, Ўзбекистон, 1998. 5-бет.

9. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Тошкент: «Маънавият», 2008. –Б.176.